ISSN:2828-6235
Impact factor:13.77

International Journal of Literature and Language Studies(IJLLS)

MAKTAB YOSHIDAGI O‘ZBEK TILIDA SO‘ZLOVCHI BOLALAR NARRATIV NUTQINING SIFATIY TAHLILI

NARRATIVES OF UZBEK-SPEAKING SCHOOL-AGE CHILDREN: A QUALITATIVE ANALYSIS

(“Mushuk” hikoyasi asosida)

Hamidova Gulrux Axmat qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti magistranti
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.23376097

Annotatsiya. Maqolada MAIN (Multilingual Assessment Instrument for Narratives) protokolining “Mushuk hikoyasi” rasmlari asosida yig‘ilgan 11 nafar 1-5-sinf o‘quvchilarining og‘zaki narrativlari sifatiy tahlil qilinadi. Tahlil uch yo‘nalishda olib borildi: bir xil voqeani ifodalashdagi leksik tanlov, rasmlarni talqin qilish usullari hamda ichki holat va fon ifodalari. Natijalar bolalar bir xil vizual stimulga leksik jihatdan turlicha javob berganini, shuningdek, rasmda ko‘rinmaydigan yo‘nalish va sabablarni turlicha to‘ldirganini ko‘rsatdi. Namuna kichikligi sababli natijalar yosh bo‘yicha umumlashtirilmaydi va keyingi, kengaytirilgan tadqiqotlar uchun kuzatuvlar sifatida taqdim etiladi.

Annotation. The article presents a qualitative analysis of the oral narratives of 11 Uzbek-speaking children in grades 1-5, elicited with the “Cat Story” picture sequence of the MAIN (Multilingual Assessment Instrument for Narratives) protocol. The analysis focuses on three areas: lexical choice when expressing the same event, interpretation of the pictures, and expressions of internal states and background. The children responded to the same visual stimulus with different lexical choices and filled in details not visible in the pictures (direction of movement, causes) in different ways. Because of the small sample, the findings are not generalized by age and are presented as observations for further research.

Kalit so‘zlar: psixolingvistika, bolalar nutqi, narrativ, MAIN, leksik tanlov, ichki holat ifodalari, sifatiy tahlil.

Keywords: psycholinguistics, child language, narrative, MAIN, lexical choice, internal state expressions, qualitative analysis.

Bolalar nutqining rivojlanishini o‘rganish zamonaviy psixolingvistikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Og‘zaki nutq insonning birlamchi til ko‘nikmasi bo‘lib, uning rivojlanishi tilning boshqa shakllari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq o‘zbek tilshunosligida bolalar og‘zaki nutqi asosan an’anaviy tilshunoslik, sotsiolingvistika yoki pragmatika doirasida o‘rganilgan bo‘lib, aniq psixolingvistik ko‘rsatkichlar asosida miqdoriy va sifatiy tahlil qilishga deyarli e’tibor qaratilmagan. Shu bois maktab yoshidagi bolalar og‘zaki narrativ nutqini xalqaro standartlashtirilgan metodologiya asosida o‘rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tilida so‘zlashuvchi boshlang‘ich maktab yoshidagi (1-5-sinf) bolalar og‘zaki narrativ nutqini MAIN (Multilingual Assessment Instrument for Narratives) protokoli asosida psixolingvistik tahlil qilish va nutq rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlarini aniqlashdan iborat. Xalqaro psixolingvistikada bolalar narrativ nutqini o‘rganish ancha rivojlangan. Bu sohada eng nufuzli va keng qo‘llaniladigan vositalardan biri - MAIN (Multilingual Assessment Instrument for Narratives) bo‘lib, u N.Gagarina va hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan. MAIN 3 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan bir tilli va ko‘p tilli bolalarning narrativ qobiliyatlarini standartlashtirilgan vizual stimullar yordamida baholashga mo‘ljallangan vositadir. Bu vosita madaniy, lingvistik va yosh jihatdan moslashtirilgan rasmlar to‘plamiga asoslangan bo‘lib, hozirgi kunga qadar 15 dan ortiq tilga moslashtirilgan. MAIN asosidagi tadqiqotlar turli tillarda olib

borilmoqda jumladan, Xitoy tillari (kanton, mandarin), urdu (Kan, Chan & Gagarina, 2020), hamda Luganda tilida (Uziel et al., 2025). Bu tadqiqotlarda gapning o'rtacha uzunligi, leksik xilma-xillik, narrativ makrostruktura ko'rsatkichlari o'rganilgan. Bolalar tilini o'rganishda U-shaklli rivojlanish nazariyasi (Marcus et al., 1992) va narrativ rivojlanish bosqichlari (Berman & Slobin, 1994) kabi fundamental tadqiqotlar nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotlar o'zbek va xalqaro psixolingvistikaga muhim hissa qo'shgan bo'lsa-da, ularning ko'pi o'zbek tilida so'zlashuvchi boshlang'ich maktab yoshidagi (1-5-sinf) bolalar narrativ nutqini MAIN metodologiyasi asosida, aniq psixolingvistik ko'rsatkichlar bilan miqdoriy va sifatiy tahlil qilmagan. Ushbu jihat mazkur maqolaning ilmiy yangiligini va oldingi ishlardan farqini belgilaydi.

Ushbu maqolada MAIN bir tilli o'zbek tilidagi maktab o'quvchilariga nisbatan qo'llanildi. Har bir ishtirokchiga "Mushuk hikoyasi" ning oltita ketma-ket rasmlari ko'rsatilib, rasmlarda nimalar tasvirlangani va nima sodir bo'layotganligini o'zbek tilida tasvirlab berishi so'raldi. Intervyu individual tarzda o'tkazilib va har bir ishtirokchining og'zaki nutqi audio ko'rinishida diktafonga yozib olindi. Tadqiqot uchun Toshkent shahar Katta Olmazor mahallasi 90-umum O'rta talim maktabining 1-sinfdan 5-sinfgacha bo'lgan o'quvchilaridan intervyu olindi va intervyu uchun ruxsat maktab ma'muriyati tomonidan olindi. Umumiy tajribada 11 nafar o'quvchilar qatnashdi, ulardan maktabda o'qituvchilari nazoratida intervyu olindi. O'quvchilarning uch nafari o'g'il bola, 8 nafari esa qiz bolalardan iborat edi. Bolalarga rasmlarni tasvirlash topshirig'i berilishidan oldin bir nechta savollar berildi, bu savollar tadqiqot materialiga kiritilmadi, chunki ulardan faqat qisqacha sinov doirasida foydalanildi. Tajribada material yig'ish intervyu metodiga asoslanganligi uchun oldindan tabiiy og'zaki nutq jarayonida yozib olingan audio nutqlarning yozma shaklidan foydalandik, ya'ni o'quvchilarning intervyu jarayonidagi rasmlarni tasvirlab bergan nutqlaridan foydalandik. Yig'ilgan audio materiallar yozma transkripsiya holatiga keltirildi. Transkripsiya jarayonida CHAT (Codes for the Human Analysis of Transcripts) tizimi asosida ishlab chiqilgan, tadqiqot maqsadiga moslashtirilgan soddalashtirilgan belgilar tizimidan foydalanildi. Har bir ishtirokchi nutqi alohida fayl sifatida transkripsiya qilindi. Transkripsiyada ishtirokchilarning haqiqiy nutqi jumladan sheva xususiyatlari, talaffuz farqlari va individual nutq shakllari o'zgartirilmagan holda saqlab qolindi. Tadqiqotchi (suhbatdosh) izohlari faqat kontekstni tushunish uchun zarur bo'lgan hollardagina kiritildi. Har bir gap alohida qatorda, BOL: belgisi bilan belgilandi. Transkripsiyada quyidagi belgilar tizimidan foydalanildi:

№	Hodisa	Belgi	Misol
1	Gap chegarasi	. ? !	mushuk daraxtga chiqdi .
2	Qisqa pauza (~1 soniya)	(.)	keyin (.) mushuk
3	O'rtacha pauza (1-2 soniya)	(..)	keyin (..) mushuk
4	Uzoq pauza (2 soniyadan kO'p)	(...)	keyin (...) mushuk
5	SO'z yoki ibora takrorlash	,	mushuk , mushuk daraxtga
6	Ochiq o'zini tuzatish	, yo'q ,	uyga , yo'q , maktabga
7	Darhol o'zini tuzatish	ketma-ket yozish	butga butaga yiqildi
8	Chala so'z (davomi boshqa so'z)	...	but... butaga
9	Tugallanmagan gap	...	u ket...
10	Talaffuz xatosi (tuzatilmagan)	(=to'g'ri shakl)	mushu (=mushuk)
11	Tushunarsiz qism	xxx	keyin u xxx ketdi
12	To'ldiruvchi tovush	&aa, &um, &ee	&aa bitta bola

Tajribada quydagi kabi yozma holga keltirilgan og'zaki nutq matnlaridan foydalanildi:

B1_1 O'quvchi: BOL: buyoqda mushik anu kapalekde mabyaqe kapalakka qarab o'tiribti. BOL: &a buyaqda esa mushik a buqayda esa mushik &a o'zi kapalakti tut tutmoqchi. BOL: &a buyoqda odam odam ovga ketmoqchi , yo' ovdan qaytvotti uyga anaqa baliq ovdan qaytvotti uyiga.

Nutq hajmini cheklash uchun so‘zlar soni emas, balki vizual stimul, ya’ni 6 ta rasmning to‘liq tavsifi mezon sifatida olindi. Shu sababli har bir ishtirokchi nutqining davomiyligi o‘rtacha 1-1.30 daqiqani tashkil etdi. Tajriba davomida ishtirokchilarga oldindan tayyorlangan stimul so‘zlar yoki yo‘naltiruvchi iboralar berilmadi. Faqat hikoyani davom ettirish zarur bo‘lgan hollarda tadqiqotchi tomonidan qisqa kuzatuvchi savollar (follow-up questions) berildi, masalan, “keyin nima bo‘ldi?” yoki “bu rasmda-chi?”. Ushbu tadqiqotda ishtirokchilar nutqi gender jihatidan alohida tahlil qilinmadi.Ushbu maqolada 1-sinfdan 5-sinfgacha bo‘lgan o‘zbek tilidagi maktab o‘quvchilarining og‘zaki narrativ nutqi asosida hisoblangan psixolingvistik ko‘rsatkichlar taqdim etiladi va tahlil qilinadi. Tahlil MAIN protokolining “Mushuk hikoyasi” vizual stimuli asosida yig‘ilgan audio materiallar transkripsiyasiga tayanadi. Har bir ishtirokchi nutqi uchun quyidagi ko‘rsatkichlar hisoblandi: o‘rtacha gap uzunligi, leksik xilma-xillik darajasi, sintaktik murakkablik, pauza, to‘ldiruvchi tovushlar, o‘zini-o‘zi tuzatish va takrorlash chastotalari. Ushbu ko‘rsatkichlar yosh guruhlari bo‘yicha taqqoslanib, o‘zbek tilidagi bolalar og‘zaki nutqining rivojlanish tendensiyalari aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra 1-sinf o‘quvchilarining o‘rtacha gap uzunligi 5.32 so‘zni, 2-sinfda 4.97 so‘zni, 3-sinfda 4.58 so‘zni, 4-sinfda 5.09 so‘zni va 5-sinfda 5.32 s’zni tashkil etdi. Natijalar to‘g‘ri chiziqli yuqoriga o‘sish tendensiyasini emas, balki 3-sinfda vaqtinchalik pasayish kuzatilganini ko‘rsatmoqda. Bu hodisa psixolingvistika adabiyotida U-shaklidagi rivojlanish deb atalib, yangi grammatik tuzilmalar o‘zlashtirilayotgan davrda bolalar vaqtincha soddaroq gaplardan foydalanishi bilan izohlanadi (Marcus et al., 1992; Carlucci & Case, 2013). Individual ko‘rsatkichlarga ko‘ra, eng yuqori gapning o‘rtacha uzunligi 5-sinf o‘quvchisi B10_10 da (6.53) va 1-sinf o‘quvchisi B1_1 da (6.31) kuzatildi, eng past ko‘rsatkich esa 5-sinf o‘quvchisi B11_11 da (4.11) qayd etildi.

Bola ID	Sinf	Jins	MLU (o'rtacha gap uzunligi, so'zda)	TTR (leksik xilma-xillik)	Sintaktik murakkablik (bog'lovchili gaplar %)	Pauza chastotasi (100 so'zga)	To'ldiruvchi tovush chastotasi (100 so'zga)	O'zini-tuzatish chastotasi (100 so'zga)	Takrorlash chastotasi (100 so'zga)
B1_1	1	qiz	6.31	0.47	56.25	0.99	7.92	5.94	7.92
B2_2	1	qiz	4.33	0.54	20.00	3.08	7.69	0.00	0.00
B3_3	2	o'g'il	4.94	0.43	0.00	3.80	12.66	5.06	5.06
B4_4	2	o'g'il	5.00	0.50	0.00	0.00	0.00	0.00	0.00
B5_5	3	o'g'il	4.94	0.42	0.00	3.57	3.57	0.00	2.38
B6_6	3	qiz	4.07	0.56	6.67	3.28	0.00	1.64	0.00
B7_7	3	qiz	4.73	0.49	0.00	4.23	1.41	1.41	2.82
B8_8	4	qiz	5.00	0.49	25.00	7.50	1.25	3.75	2.50
B9_9	4	qiz	5.18	0.47	5.88	5.68	0.00	1.14	2.27
B10_10	5	qiz	6.53	0.43	26.32	4.84	5.65	1.61	1.61
B11_11	5	qiz	4.11	0.41	11.11	0.00	5.41	2.70	2.70

Tadqiqotning miqdoriy ko‘rsatkichlari (gapnig o‘rtacha uzunligi, leksik xilma-xillik, sintaktik murakkablik) bolalar nutqi rivojlanishining umumiy tendensiyalarini ko‘rsatsa-da, transkripsiyalarning sifatiy tahlili yanada chuqurroq va boy ma’lumot beradi. Shu sababdan quyida ishtirokchilar og‘zaki nutqida kuzatilgan leksik, semantik va narrativ xususiyatlar tahlil qilinadi. Tadqiqotning eng e’tiborli topilmalaridan biri shuki, ishtirokchilarning bir xil harakat yoki holatni ifodalashda nihoyatda boy leksik xilma-xillik ko‘rsatganidir. Bu hodisa bolalarning individual leksik resurslari va so‘z tanlash qobiliyatlarini aks ettiradi. Psixolingvistik nuqtai nazardan, bir tushunchani turli leksik birliklar bilan ifodalash bolaning mental leksikonida so‘zlar o‘rtasidagi semantik bog‘lanishlar tarmog‘i qanchalik rivojlanganini ko‘rsatadi. Bola nutq ishlab chiqarish jarayonida kerakli tushunchani faollashtiradi, so‘ngra shu tushunchaga mos keladigan leksik birlikni tanlaydi; agar aynan mos so‘z topilmasa, semantik jihatdan yaqin muqobil qidiriladi. Mushukning tikanli butaga ilinib qolishini ishtirokchilar bir necha xil shaklda ifodaladi. Bir ishtirokchi hatto bitta narrativ ichida ikki xil shaklni (biri xato, biri to‘g‘ri) qo‘lladi: “mabi mushik

kapaleyga tashlanaman dib butaga yiqilib tushib qamashib qoldi.” “mushik esa o‘tta tiqilib qoldi.” “Qamashib qoldi” (ehtimol “ilashib qoldi” demoqchi bo‘lgan) va “tiqilib qoldi” kabi variantlar bolalarning aynan kerakli so‘zni topa olmaganda semantik jihatdan yaqin muqobillarni izlashini ko‘rsatadi va bu leksik chaqirib olish (lexical retrieval) jarayonining individual xususiyatidir. Bu hodisa bolaning passiv lug‘atida to‘g‘ri so‘z mavjud bo‘lsa-da, uni nutq jarayonida faol chaqirib olish qobiliyati hali to‘liq shakllanmaganini ko‘rsatishi mumkin. Aynan shunday almashtirishlar bolalar nutqi rivojlanishining tabiiy bosqichi hisoblanadi, chunki ular so‘zlarni semantik dala (semantic field) doirasida guruhlab saqlaydi va kerakli so‘z topilmaganda o‘sha dala ichidagi yaqin so‘zni tanlaydi. Xuddi shunday xilma-xillik mushukning kapalakka intilishini tasvirlashda ham kuzatildi. Ko‘pchilik ishtirokchilar bu harakatni neytral “tutmoqchi” fe’li bilan ifodaladi, biroq ayrimlari ancha ekspressiv leksika qo‘lladi: “mushik kapalakka hujum qilyapti.” “bunda mushik butadan kapalak uchib ketvotganda tashlanvotti.” “Hujum qilmoq” va “tashlanmoq” fe’llari harakatning shiddatini ifodalaydi va bolalarning leksik tanlovida hissiy-ekspressiv komponent mavjudligini ko‘rsatadi. Neytral “tutmoqchi” fe’lidan farqli o‘laroq, bu fe’llar nafaqat harakatni, balki uning intensivligini va personajning niyatidagi qat’iyatni ham ifodalaydi. Bunday ekspressiv leksikaning qo‘llanishi bola narrativni shunchaki voqealar bayoni sifatida emas, balki hissiy jihatdan boyitilgan hikoya sifatida qurishga harakat qilayotganini ko‘rsatadi. Koptokning suvga tushishini esa ishtirokchilar to‘rt xil, ba’zan bir-biriga fizik jihatdan zid bo‘lgan fe’l bilan tasvirladi: “ikkinchi rasmda kopto‘gi keyin oqib ketdi dumalab.” “kopto‘gi suvda yotipti.” “bola suvda cho‘kib ketvotganini ko‘rvotti.” “hamma narsasi yerga tushib ketgan va ko‘ptogi suzib ketgan.” “Oqib ketmoq”, “yotmoq”, “cho‘kmoq” va “suzmoq” fe’llarining qo‘llanishi, ayniqsa “cho‘kmoq” va “suzmoq” kabi zid ma’noli fe’llar bolalarning bir xil sahnani turlicha idrok etishini ko‘rsatib beradi. Bu farq nafaqat leksik tanlov, balki idrok darajasidagi individual farqlarni ham aks ettiradi: bir bola koptokning suv yuzasida qolishini (“yotipti”, “suzib ketgan”), boshqasi esa uning suvga botishini (“cho‘kib”) tasavvur qilgan. Demak, bir xil vizual stimul bolalarning oldingi tajribasi va dunyo haqidagi bilimiga qarab turlicha talqin qilinadi.

Ayrim ishtirokchilar narrativida frazeologik birliklar, ya’ni turg‘un iboralar ham kuzatildi, bu bolaning nafaqat lug‘aviy, balki frazeologik kompetensiyaga ham ega ekanligini ko‘rsatadi. Frazeologik birliklar tilning eng murakkab leksik qatlamlaridan biri hisoblanadi, chunki ularning ma’nosi tarkibidagi so‘zlarning oddiy yig‘indisidan kelib chiqmaydi. Bolaning turg‘un iborani o‘rinli qo‘llashi uning ona tilining nafaqat lug‘aviy, balki madaniy va idiomatik qatlamlarini ham o‘zlashtirayotganini bildiradi. Misol uchun, hikoyaning yakuniy qismida mushukning baliqlarni yeyishini tasvirlashda ishlatilgan ifoda eng yorqin namuna deb hisoblasak bo‘ladi: “mushu ko‘zi ochlikdan baliqqi yeb qo‘y ogan uji.”
“Ko‘zi ochlik qilmoq” iborasi o‘zbek tilida ochko‘zlik, nazarning to‘ymasligini ifodalovchi frazeologik birlik bo‘lib, uni narrativ kontekstida o‘rinli qo‘llash bolaning til vositalaridan ijodiy foydalanish qobiliyatini ochib beradi. Bola bu iborani mexanik takrorlash emas, balki aynan mos vaziyatda, ya’ni mushukning ochko‘zlik bilan baliqlarni yeyishini izohlashda qo‘llagan, bu esa iboraning ma’nosini to‘liq tushunganini ko‘rsatadi. Frazeologik kompetensiyaning bunday namoyishi bola atrofidagi kattalar nutqidan idiomatik iboralarni o‘zlashtirib, ularni o‘z faol lug‘atiga kiritayotganini va o‘rinli qo‘llay olayotganini tasdiqlaydi. Ishtirokchilarning bir xil vizual sahnani turlicha talqin qilishi tadqiqotning muhim topilmalaridan biri bo‘lib, bu bolalarning idrok va xulosa chiqarish qobiliyatidagi individual xususiyatlarni aks ettiradi.

Narrativ ishlab chiqarish faqat ko‘rilgan narsani tasvirlash emas, balki statik tasvirlardan voqealar ketma-ketligini, sabab-natija bog‘lanishlarini va personajlarning niyatlarini qayta tiklashni talab etadi. Rasmda chelakda baliq olib ketayotgan odam tasvirlangan. Bir ishtirokchi bu sahnani “ovdan qaytish” sifatida talqin qildi va hatto o‘zini tuzatib, talqinini aniqlashtirdi: “odam ovga ketmoqchi, yo‘ ovdan qaytvotti uyga, anaqa baliq ovdan qaytvotti uyiga.” E’tiborli jihat shundaki, bola avval “ovga ketmoqchi” deb boshlab,

so‘ngra o‘zini tuzatib “ovdan qaytvotti” deydi, bu ochiq o‘z-o‘zini tuzatish bolaning rasmni real vaqtda qayta tahlil qilayotganini va o‘z talqinini nutq monitoringi orqali aniqlashtirayotganini ko‘rsatadi. Boshqa ishtirokchi esa aynan teskari yo‘nalishni, ya’ni “ovga kelish”ni tushundi rasmdagi tasvirdan: “keyin ikkinchi rasmda bitta odam olib baliq tutishga kelyapti” Bu statik tasvirning harakat yo‘nalishini bolalar turlicha qayta tiklashini ko‘rsatadi. Narrativ ishlab chiqarishda bolalar rasmda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rinmaydigan voqealar ketma-ketligini o‘z dunyoqarashlari va oldingi tajribasi asosida to‘ldiradi. Bir bola baliq bilan ketayotgan odamni “ovdan qaytayotgan”, boshqasi “ovga kelayotgan” deb talqin qilishi bolalarning inferensiya qobiliyatidagi farqni, ya’ni ko‘rinmaydigan ma’lumotni mantiqiy xulosa orqali to‘ldirish usulidagi individual xususiyatlarni aks ettiradi. Bundan tashqari tajriba davomida ishtirokchilar rasmdagi inson personajini turlicha atadi. Ko‘pchilik “bola” yoki “odam”, “o‘g‘il bola” desa, bir ishtirokchi uni aniqroq rol bilan, ya’ni “ovchi” deb nomladi: “keyin ovchi keldi oldiga.” “Ovchi” so‘zini tanlash bolaning personajga uning funksiyasi (baliq ovlash) asosida rol-nom berishini ko‘rsatadi va bu narrativ kompetensiyaning yuqori darajasidir, chunki bola shunchaki tashqi ko‘rinishni (“odam”, “bola”) emas, personajning hikoyadagi vazifasini idrok etadi. Personajlarni ularning funksiyasi asosida nomlash bu narrativ rivojlanishning muhim ko‘rsatkichidir, chunki u bolaning voqealarni yaxlit tizim sifatida ko‘rishini va har bir personajning hikoyadagi o‘rnini anglashini talab etadi. Boshqacha aytganda, “ovchi” deb nomlagan bola personajni voqea kontekstida joylashtirgan, oddiy “odam” deb nomlagan bola esa faqat vizual ko‘rinishga tayangan. Ko‘pchilik ishtirokchilar faqat asosiy voqea va personajlarga e’tibor qaratgan bo‘lsa, bir ishtirokchi sahnaning fon elementlarini ham tasvirladi: “shamol bo‘votti.”, “sokin, sokin dala.” Fon elementlarini idrok etish va tasvirlash narrativ kompetensiyaning yuqori darajasini ko‘rsatadi, chunki bola nafaqat asosiy voqeani, balki atrof-muhit va kayfiyatni ham ifodalashga harakat qilgan. Narrativ ishlab chiqarishda ko‘pchilik bolalar diqqatini faqat markaziy voqealarga (mushuk, kapalak, bola) qaratadi va fon tafsilotlarini tushirib qoldiradi. Fon elementlarini (shamol, dala) kiritish esa bolaning sahnani yaxlit manzara sifatida idrok etishini va uni boyroq tasvirlash qobiliyatini ko‘rsatadi. “Sokin, sokin dala” iborasidagi takror ham badiiy-ekspressiv vosita bo‘lib, bola nafaqat ma’lumot uzatish, balki matnga hissiy va estetik ohang berish maqsadida til vositalaridan foydalanayotganini aks ettiradi. Bunday tavsifiy boylik odatda kitob o‘qish tajribasi boy bo‘lgan bolalarda uchraydi. Alohida e’tiborga loyiq bo‘lgan yana bir hodisa bir ishtirokchining rasmda mavjud bo‘lmagan detalni narrativga kiritishidir: “baliq mushuk chivin chaqvotganidan jahli chiqvotti.” “Mushuk hikoyasi” rasmlar to‘plamida hech qanday chivin tasvirlanmagan. Bu bola narrativni o‘z tasavvuri asosida boyitib, vizual stimuldan tashqari ijodiy element qo‘shishini ko‘rsatadi. Bola voqeaga sabab izlagan (mushukning nima uchun jahli chiqdi? - chunki uni chivin chaqdi) va u sababni mustaqil o‘ylab topgan. Bu bolaning sababiy fikrlash va narrativ tasavvur qobiliyatining rivojlanganligini aks ettiradi. Psixolingvistik nuqtai nazardan, bunday hodisa bolaning narrativni shunchaki ko‘rilgan tasvirlar ketma-ketligi sifatida emas, balki ichki mantiqqa ega yaxlit hikoya sifatida qurishga intilishini ko‘rsatadi. Bola personajning hissiy holatiga (jahl) sabab izlaydi va rasmda bo‘lmagan, biroq mantiqan mos keladigan element (chivin) ni to‘qib, voqeaga izchillik beradi. Bu narrativ rivojlanishning yuqori bosqichi bo‘lib, bolaning voqealar o‘rtasidagi sabab-natija bog‘lanishlarini mustaqil qura olishini tasdiqlaydi. Tadqiqotda ishtirokchilarning narrativ hajmida sezilarli farqlar ham kuzatildi ayrim bolalar batafsil, kengaygan hikoya tuzsa (17 ta gapgacha), boshqalari ancha qisqa, ixcham tasvir bilan cheklandi (12 ta gap bilan). Bu farqlar nafaqat til qobiliyati, balki shaxsiy-psixologik omillar bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin, chunki ayrim ishtirokchilar uyatchanlik yoki notanish suhbat vaziyatidagi noqulaylik sababli o‘z narrativlarini qisqartirgan bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Shu tufayli ham narrativ ishlab chiqarishga ta’sir qiluvchi muhim ekstralingvistik omil, ya’ni bolaning haqiqiy til kompetensiyasi va u namoyish etgan nutq hajmi har doim ham to‘liq mos kelavermaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova I. (2004). Matnni tushunishga ko‘ra bayonlarning psixolingvistik tahlili. Til va adabiyot ta’limi (in Uzbek). (Psycholinguistic analysis of expositions of textaccording to the level of comprehension. Language and Literature Education) 4, 25-30.
2. Azimova I. (2006). Matn persepsiyasi darajalari. O‘zMU xabarnomasi (in Uzbek).(The levels of text perception. Bulletin of National University of Uzbekistan) 3, 33-36.
3. Azimova I. (2010) Gazeta sarlavhalarining tushunilishi. O‘zbek filologiyasi masalalari (in Uzbek). (Comprehension of newspaper headlines. Problems of Uzbek philology). P. 207-214.
4. Azimova I. (2010) Matn mavzusidan xabardorlikning tushunishga ta’siri. Lingvist (ilmiy maqolalar to‘plami) I (in Uzbek). (Influence of awareness of the topic to text comprehension. Linguist (collected papers) I) P. 48-53.
5. Azimova I. (2013) Afazia tilshunoslikning O‘rganish obyekti sifatida. Ilm sarchashmalari (in Uzbek). (Aphasia as an object of linguistics. Source of Science) 11, 40-44.
6. Azimova I. Ona tili bo‘yicha savodxonlik kurslarida kommunikativ yondashuvni q‘llash // Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti mavzusidagi IV an’anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to‘plami. – Toshkent: ToshDO‘TAU. – B. 130-136.
7. Azimova I. O‘zbekcha agrammatik spontan nutqda bog‘lama va fe’l funksional shakllarining ifodalanishi.//Lingvist (ilmiy maqolalar to‘plami) IV. Toshkent. 2015.
8. Dunn L. (1997). PPVT-III: Peabody picture vocabulary test: American Guidance Service.
9. Kevin Diependaele, Kristin Lemhöfer, and Marc Brysbaert. The word frequency effect in first- and second-language word recognition: A lexical entrenchment account // The Quarterly Journal of Experimental Psychology – 2012.
10. Kimberley Mulder, Jan H. Husltijn. Linguistic Skills of Adult Native Speakers, as a Function of Age and Level of Education // Oxford University Press – 2011.
11. Suzanna R.Jongman, Yung Han Khoe, Florian Hintz. Vocabulary size influences spontaneous speech in native language users: Validating the automatic use of speech recognition in individual differences research // Sagejournals – 2020.
12. Азимова И. (2016) Употребление форм глаголов при аграмматической афазии(на примере узбекского языка). Вестник РУДН. Серия Теория языка. Семиотика. Семантика. #2. P.152-158.
13. Bock, K., and Levelt, W.J.M. (1994). Language production. Grammatical encoding. IN M.A. Gernsbacher (Ed.). Handbook of psycholinguistics (pp.741-779). New York: Academic Press.
14. T.B. Jay. The psychology of language. New Jersey: Pearson Education.
15. Indefrey, P., and Levelt, W.J.M. (2000).The neuroal correlates of language production. In M.S. Gazzagina(Ed.).The New Cognitive Neuroscience(2nd Ed., pp. 845-866).Cambridge: MIT Press.
16. Indefrey, P., and Levelt, W.J.M. (2000).The neuroal correlates of language production.
17. In M.S. Gazzagina(Ed.).The New Cognitive Neuroscience(2nd Ed., pp. 845-866).Cambridge: MIT Press.
18. Marcus, G. F., Pinker, S., Ullman, M., Hollander, M., Rosen, T. J., & Xu, F. (1992). Overregularization in language acquisition. Monographs of the Society for Research in Child Development, 57(4), 1–178.
19. Carlucci, L., & Case, J. (2013). On the necessity of U-shaped learning. Topics in Cognitive Science, 5(1), 56–88.
20. Berman, R. A., & Slobin, D. I. (1994). Relating Events in Narrative. Lawrence Erlbaum Associates.
21. Astington, J. W., & Baird, J. A. (Eds.). (2005). Why Language Matters for Theory of Mind. Oxford University Press.

22. Namazi, M., & Fatemi, M. A. (2013). The role of lexical availability in second language vocabulary. International Journal of Language Learning.
23. Levelt, W. J. M. (1989). Speaking: From Intention to Articulation. MIT Press.
24. Viejo, A., Fernández-Urquiza, M., & Diez-Itza, E. (2025). Narrative microstructure and macrostructure in adolescents with Down syndrome and Williams syndrome. Frontiers in Psychology, 16:1402121.
25. Torng, P. C., & Sah, W. H. (2020). Narrative abilities of Mandarin-speaking children: macrostructure and microstructure. Clinical Linguistics & Phonetics, 34(5).
26. Liles, B. Z. (1993). Narrative discourse in children with language disorders and children with normal language. Journal of Speech and Hearing Research, 36(5).